




SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**SURXONDARYO VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**
2021- yil yakuniga

SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'Ichanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F. R. Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'Imagan", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak, yanglismagan bo'lamic.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019 — 2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi.

Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yicha tarmoq badiiy kengashlarini tashkil etish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.

SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Teatrlar soni, birlikda



Yil davomida Surxondaryo viloyati teatrlarida jami **417** ta spektakl namoyish etilgan bo'lib, shundan **185** tasi bepul hisoblanadi.



SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

kutubxona muassasalari soni, birlik




O'rtacha bitta muassasaga to'g'ri keladigan kitob va jurnallar soni, nusxa





Hududlarda o'rtacha bitta muassasaga to'g'ri keladigan kitob va jurnallar soni, (nusxa) bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Angor tumanida – **86253** ta , eng past ko'rsatkich Muzrabot tumani – **10700** tani tashkil etdi..

MADANIYAT VA AHOLO DAM OLİSH
MARKAZI MUASSASALARI SONI



Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni



**SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**

**MUZEYLAR FAOLIYATINING ASOSIY
KO'RSATKICHLARI**


	Muzey lar soni	Ulardan muzey filallari	shundan:					Muzey lar tomon idan tashkil etilgan ekskur siyalar soni	Ekskursi ya tarzida qatnaga nlar soni, ming kishi
			Tashrif buyuruvo chilar soni, ming kishi	o'quv chi va talaba lar soni	Ko'rgaz malar soni				
Surxondaryo viloyati .	8	6	72.2	61.7	38		1083	33.2	
Termiz sh	8	6	72.2	61.7	38		1083	33.2	
Oltinsoy	-	-	-	-	-		-	-	
Angor	-	-	-	-	-		-	-	
Bandixon	-	-	-	-	-		-	-	
Boysun	-	-	-	-	-		-	-	
Muzrabot	-	-	-	-	-		-	-	
Denov	-	-	-	-	-		-	-	
Jarqo'rg'on	-	-	-	-	-		-	-	
Qumqo'rg'on	-	-	-	-	-		-	-	
Qiziriq	-	-	-	-	-		-	-	
Sariosiyo	-	-	-	-	-		-	-	
Termiz	-	-	-	-	-		-	-	
Uzun	-	-	-	-	-		-	-	
Sherobod	-	-	-	-	-		-	-	
Sho'rchi	-	-	-	-	-		-	-	

Muzeylardagi eksponatlar soni, ming birlik



Muzeylar soni

2018 → 2019 → 2020 → 2021



Muzeylar madaniyat ko'zgusi, kecha va bugunni o'zaro bog'laydigan ma'naviyat maskanidir. Bu maskanlar insonga ma'naviy ozuqa, estetik

zavqu-shavq ulashadi, kishining dunyoqarashini, intellektual ongini o'stiradi. Muzeylar faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishi bo'lib qolmasdan, ular o'tmish sayohatiga chorlovchi yulduz hamdir.

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Surxondaryoda muzeylar soni 8 tani tashkil etib, Ulardan muzey filallari 6 tani tashkil etmoqda.



Jami hayvonot dunyosi namunalarini
turlari




**2022- yilning 1- yanvar holatiga, Surxondaryo viloyatida 1 ta
hayvonot bog'i faoliyat yuritmoqda.**

**Mazkur hayvonot bog'ida jami 22 turdag'i sudralib
yuruvchilar, 59 turdag'i parrandalar, 25 turdag'i sut
emizuvchilar va 23 turdag'i boshqa jonzotlar mavjud.**



SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi



Muzeylardagi jami xodimlar soni **147** kishini, shu jumladan, ayollar **89** kishini. Jami xodimlardan ilmiy xodim va ekskursavodlar **55** kishini, "muzey ishi, tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrash" bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lganlar **31** kishini tashkil etadi.

SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat- inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar".

Ansamblar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgonlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar boyo etiladiqan joylar.

Mundarija:

Umumiy ma'lumot.....	1
Teatrlar soni	2
Kutubxonalar soni.....	3
Madaniyat va aholi dam olish markazi muassasalari soni.....	4
Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari.....	5
Muzeylardagi eksponatlar soni, ming birlik.....	6
Jami hayvonot dunyosi namunalari turlari	7
Jami hayvonot dunyosi namunalari turlari	8
Statistik ko'rsatkichlarga izoh.....	11



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi



Termiz shahar At-Termiziy
ko'chasi, 7-uy



Tel: +99876 225-65-73